2018 yil yanvar-iyul oylarida Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 6 540.6 mlrd.so`mni, osish **7,7%** ni tashkil etdi
- Iste`mol tovarlari ishlab chiqarishning o`sish sur`ati – 3.6 **%**
- Iste`mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi – 31.3**%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **33.0%**

Dastlabki ma’lumotlar bo’iycha 2018 yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6540.6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o’shishining asosiy omili bo’lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 7,5 % ga, tog’- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 14,6 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 9,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning - 23,9 % ga o’sishi hisoblanadi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16.2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0.2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida tog`-kon sanoati bilan bog`liq boshqa faoliyat turi hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan - 14,6 % ga, ko`mir qazib olish sanoati sohasida - 3,6 % ga oshganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6205.1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog`ining hajmi 2,9 mlrd.so`mni, (o`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati -102,8%), o`rta yuqori texnologiyali – 853,8 mlrd.so`mni, (111,5%), o`rta quyi texnologiyali – 2206,9 mlrd.so`mni, (116,7%) va quyi texnologiyali – 3141,6 mlrd.so`mni, (101,3%) tashkil etdi.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo`yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O’z navbatida sanoatning mazkur tarmog’ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ichimliklar ishlab chiqarish 14.9 % ga, qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish 12.9 % ga, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 24.7 % ga, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 7.2 %ga, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 37.9 % ga, mebel ishlab chiqarish 14,8 % ga, oshganligini va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish,hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O`sish sur`ati, foizda
	O`simlik yog`I (tozalangan), ming t.		
8,6		**13,9**	**160,8**
	Paxta tolasi, ming t.		
34,8		**39,0**	**112,1**

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O`sish sur`ati, foizda
	Avtomobil benzini, ming t.		
183,2		276,1	150,7
	Dizel yoqilg`isi, ming t.		
195,8		304,4	155,5
	Amoniy nitrat, ming t. azot		
68,3		81,5	119,3
	Portlandsement, ming t.		
585,4		510,3	87,2
	Temir beton mahsulotlari, ming t.		
14,6		20,9	143,3

Elektr, gaz, bug` bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta`minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 283.1 mlrd.so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4.3 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog’i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9.9 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta`minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36.1 mlrd.so’mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog’i o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23.9 % ga oshganligi kuzatildi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarilishi.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2046,4 mlrd.so’mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,6 % ga o’sishi ta’minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,3 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur`atlari



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko’p Farg`ona shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 39,0 % ulushini), Qo`qon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 14,0% ulushini), Quvasoy shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 8,0% ulushini), Marg`ilon shahar (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,0% ulushini), Toshloq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 12,0% ulushini), Dang`ara tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 5,0% ulushini), O`zbekiston tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Quva tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Buvayda tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Beshariq tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Bog`dod, Oltiariq va Farg`ona tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 2,0% ulushini), Rishton tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Yozyovon tumani (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% ulushini), Qo`shtepa, So`x, Uchko`prik, Furqat tumanlari (viloyat ishlab chiqarish hajmining 1,0% dan kam ulushini) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

2018 yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarilishining hajmlari va o`sish sur`atlari
(*o`tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda*)



Hududlarning iste`mol tovarlari ishlab chiqarishi.

Viloyat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Farg`ona shahar 428,1 mlrd.so`m, Qo`qon shahar 356,3 mlrd.so`m, Quvasoy shahar 92,2 mlrd.so`m, Marg`ilon shahar 226,3 mlrd.so`m, Toshloq tumani 60,8 mlrd.so`m, Dang`ara tumani 66,3 mlrd.so`m, O`zbekiston tumani 85,7 mlrd.so`m, Quva tumani 107,6 mlrd.so`m, Buvayda tumani 55,6 mlrd.so`m, Beshariq tumani 97,7 mlrd.so`m, Bog`dod tumani 73,9 mlrd.so`m, Oltiariq tumanlari 90,5% mlrd.so`m, Farg`ona tumani 71,8 mlrd.so`m, Rishton tumani 76,2 mlrd.so`m, Yozyovon tumani 44,4 mlrd.so`m, Qo`shtepa tumani 56,0 mlrd.so`m, So`x tumani 28,6 mlrd.so`m, Uchko`prik tumani 15,9 mlrd.so`m, Furqat tumani 12,8 mlrd.so`mga, to`g`ri keldi.



Farg`ona viloyatining 2018 yil iyul oyida sanoat mahsulotlari hamda xalq iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

№	Shaharlar va tumanlar nomi	2018 yil yanvar-iyul sanoat ishlab chiqarilishi		2018 yil yanvar-iyul aholi jon boshiga	2018 yil yanvar-iyul xalq iste`mol tovarlari		2018 yil yanvar-iyul aholi jon boshiga
		mlrd.so`m	o`sish, %	ming.so`m	mlrd.so`m	o`sish, %	ming.so`m
1	Marg`ilon sh.	299,6	106,9	1308,8	226,3	107,5	988,4
2	Farg`on ash.	2559,7	116	9153,0	428,1	103,7	1530,7
3	Quvasoy sh.	498,8	101,2	5509,3	92,2	105,2	1018,2
4	Qo`qon sh.	900,2	113,3	3656,2	356,3	114,2	1447,2
5	Bog`dod t.	107,1	104,9	518,3	73,9	110,5	357,6
6	Beshariq t.	124,1	108,3	564,6	97,7	107,2	444,2
7	Buvayda t.	148,0	106,8	675,8	55,6	110,3	253,7
8	Dang`ara t.	317,6	107	1902,6	78,4	108,1	397,1
9	Yozyovon t.	58,3	104,6	548,4	44,4	104,2	417,7
10	Oltiariq t.	108,9	106,4	534,3	90,5	106,4	444,1
11	Qo`shtepa t.	52,5	106,4	287,3	48,0	104,2	306,4
12	Rishton t.	82,6	109	424,4	76,2	103,7	391,4
13	So`x t.	26,2	105,5	349,1	24,5	106,2	381,9
14	Toshloq t.	794,3	109,7	4090,5	60,8	107,4	313,2
15	Uchko`prik t.	19,4	102,1	88,2	15,9	106,2	72,4
16	Farg`ona t.	106,6	105,8	519,2	71,8	104,1	349,5
17	Furqat t.	14,9	108,4	130,3	12,8	105,2	111,8
18	O`zbekiston t.	159,0	106,6	691,4	85,7	105,3	372,6
19	Quva t.	162,7	107,3	653,1	107,6	108,4	431,7
Viloyat bo`yicha		**6540,6**	**107,7**	**1800,5**	**2046,4**	**103,6**	**563,3**

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,0 % ga oshishini ta'minladi, o’z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 33,0 % tashkil etmoqda.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 5895 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo’lib, ulardan 1152 tasi Qo`qon shahri, 791 tasi Marg`ilon shahri, 760 tasi Farg`ona shahri, 408 tasi Uchko`prik tumani, 367 tasi O`zbekiston tumani, 309 tasi Dang`ara tumani, 276 tasi Buvayda tumani, 231 tasi Toshloq tumani, 213 tasi Quva tumani, 188 tasi Bog`dod tumani, 188 tasi Oltiariq tumani, 165 tasi Qo`shtepa tumani, 152 tasi Rishton tumani, 142 tasi Farg`ona tumani, 142 tasi Quvasoy shahri, 114 tasi Yozyovon tumani, 109 tasi Furqat tumani, 98 tasi Beshariq tumani, 90 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda 726 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo’lib, ulardan 116 tasi Qo`qon shahri, 62 tasi Marg`ilon shahri, 88 tasi Farg`ona shahri, 55 tasi Uchko`prik tumani, 46 tasi O`zbekiston tumani, 21 tasi Dang`ara tumani, 56 tasi Buvayda tumani, 33 tasi Toshloq tumani, 31 tasi Quva tumani, 26 tasi Bog`dod tumani, 41 tasi Oltiariq tumani, 15 tasi Qo`shtepa tumani, 24 tasi Rishton tumani, 19 tasi Farg`ona tumani, 17 tasi Quvasoy shahri, 11 tasi Yozyovon tumani, 18 tasi Furqat tumani, 27 tasi Beshariq tumani, 13 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Farg`ona viloyatida faoliyat ko`rsatayotgan hamda yanvar-iyul oylari davomida yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



Farg`ona viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo`limi

Nashr uchun mas'ul: F.Yakubov
Aloqa telefoni: (0371) 230-87-19